

TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17744217>

Olim Xayrullayev Itolmasovich

Iqtisod fanlari doktori (PhD)

Yuldashev O'tkirjon Ibragimovich

Xalqaro innovatsion universitet, Iqtisodiyot va moliya kafedrası

Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada tadbirkorlik tushunchasi, kichik biznes va tadbirkorlikni davlatning iqtisodiy siyosatidagi muhim o'rni o'rganilgan bo'lib, tadbirkorlik faoliyatining vazifasi va tadbirkorlik mulkiy jihatidan xususiy, jamoaviy va davlat tadbirkorligi, faoliyat ko'lami jihatidan kichik, o'rta va yirik tadbirkorlik faoliyatlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar

tadbirkorlik, kichik biznes, bozor subyekti, tadbirkorlik muhiti.

Аннотация

В данной статье изучается понятие предпринимательства, важная роль малого бизнеса и предпринимательства в экономической политике государства. Также рассматриваются задачи предпринимательской деятельности, а также информация о предпринимательстве по форме собственности - частном, коллективном и государственном, и по масштабу деятельности - малом, среднем и крупном предпринимательстве.

Ключевые слова

предпринимательство, малый бизнес, субъект рынка, предпринимательская среда.

Abstract

This article examines the concept of entrepreneurship and the important role of small business and entrepreneurship in the economic policy of the state. It also discusses the functions of entrepreneurial activity, as well as provides information about entrepreneurship in terms of ownership - private, collective, and state entrepreneurship - and in terms of scale of activity - small, medium, and large enterprises.

Keywords

entrepreneurship, small business, market entity, entrepreneurial environment.

Kirish. Tadbirkorlikni rivojlantirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bandlik muammosini hal etish, bozorning mo'l - ko'lligini ta'minlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlarini inobatga olib, mamlakatimizda kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga alohida e'tibor berilmoqda.

«Erkin tadbirkorlik uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratish zarur. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun hamma yo'lni ochib berish kerak. Ularning xom ashyo resurslaridan foydalanishlariga keng yo'l ochib berish, ular ishlab chiqarayotgan mahsulot mamlakatning o'zida ham, uning tashqarisida ham sotiladigan bozorni kafolatlovchi tizimni barpo etish darkor».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 18-sentabr kuni "Tadbirkorlar va ishbilarmonlar bilan ochiq muloqot" uchrashuvidagi nutqidan.



Tadbirkorlik rivoji uchun yangi sharoit va imkoniyatlar yaratish-ustuvor vazifamizdir - Shavkat Mirziyoyev.

Tadbirkorning yutug'i - butun xalqimizning yutug'i - Shavkat Mirziyoyev.

Tadbirkorlik - foyda olishga qaratilgan har qanday qonuniy tijorat faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs tadbirkor deyiladi. Xususiy tadbirkorlik kapitalistik iqtisodiyot negizidir. Umumiy olib qaraganda, tadbirkorlik keng faoliyat turlarini yangi mahsulot yaratish, yangi texnologiyani ishlab chiqish, yangi bozorlarga kirib borish, yangi iste'molchilar doirasini shakllantirish, ishlab chiqarishga yangi resurslarni, mablag' bilan ta'minlash yangi manbalari va shakllarini jalb qilish, tashkiliy-boshqaruv yangiliklarini o'tkazish, yangi kooperatsion munosabatlar, shu jumladan, xalqaro munosabatlarni shakllantirish va hokazolarni qamrab oladi.

Tadbirkorlikning asosiy belgilari

- * tashabbuskorlik
- * novatorlik

- * yaratuvchanlik
- * islohotchilik
- * tavakkalchilik

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyati uchun sarmoya-ish binolari, asbob-uskunalar, xomashyo va turli materiallar, mablag' hamda boshqa moddiy va nomoddiy resurslar zarur. Tadbirkorlik faoliyatida ishlatiladigan bu sarmoya tadbirkor mulki hisoblanadi. Tadbirkor ana shu mulkdan foydalanishda erkindir, ya'ni undan o'zi ma'qul ko'rgan maqsadlarda foydalanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va tegishli qonunlarida fuqarolarning shaxsiy va xususiy mulki daxlsizligi va undan foydalanish erkinligi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, tadbirkorlik sohasi, turi, yo'nalishi, shakli, joyi, hamkorlari va boshqa jabhalarini tanlashda tadbirkor erkin bo'lib, uning bunday erkinligi ham qonunlar yordamida kafolatlangan. Tadbirkor o'z faoliyatini tashkil etish, yuritish va uning natijasida oladigan daromad (foyda)ni ishlatishda to'la mustaqil hisoblanadi.

Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U mahsulot va xizmatlarning turlarini ko'paytirish, ish o'rinlari yaratish, sarmoyani jalb qilish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda asosiy omildir. Tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida barqaror o'sishni ta'minlaydi, xalqaro raqobatbardoshlikni oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kamaytiradi.

Tadbirkorlik subyektlariga o'z mablag'larini samarali boshqarishda yordam berish uchun o'quv dasturlari va salohiyatni oshirish tashabbuslarini taklif qilish juda muhimdir. Moliyaviy savodxonlik, buxgalteriya hisobi, marketing va biznesni rejalashtirish bo'yicha seminarlar yoki onlayn kurslarni taklif qilish qarz oluvchilarni barqaror o'sish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlashi mumkin. Bunday ta'lim tashabbuslari tadbirkorlarning xabardor qarorlar qabul qilish uchun bilim va vositalarga ega bo'lishini ta'minlaydi, defolt xavfini kamaytiradi va mikrocredit dasturlarining umumiy muvaffaqiyat darajasini oshiradi.

Kichik va o'rta biznes davlat iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega. Ular mahalliy bozorni turli mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlaydi, soliq tushumlarini ta'minlaydi va yangi ish o'rinlari yaratadi. Shuningdek, xalqaro bozorlar bilan integratsiyalanish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining nazariy asoslari:

Davlat tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va investitsiya muhitini yaxshilashni maqsad qiladi. Davlat qo'llab-quvvatlashning asosiy mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash: imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish.

2. Soliq va budjet imtiyozlari: kichik va o'rta biznes uchun soliq yuklarini kamaytirish va investitsiyalarni jalb qilish.

3. Institutsional qo'llab-quvvatlash: biznes-inkubatorlar, klasterlar va savdo uylari orqali texnik va tashkiliy yordam ko'rsatish.

4. Kadrlar va bilim salohiyatini rivojlantirish: biznes-o'quv markazlari, universitetlar va treninglar orqali malakali kadrlar tayyorlash.

Tadbirkorlik faoliyatida davlat va hokimiyat organlari, ularning mansabdor shaxslarining aralashuvi taqiqlangan. tadbirkorlarning mustaqilligi ham qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Mamlakatning doimiy iqtisodiy rivojlanishi va yuksalishida ishbilarmon doiralar muhim rol o'ynaydi. tadbirkorlik hamjamiyatida turli biznes mutaxassislari yoki ishbilarmonlar ushbu rivojlanishga hissa qo'shadigan vazifalarni bajarishda asosiy rol o'ynaydi. Garchi har xil turdagi tadbirkorlik mutaxassislari mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi o'z pozitsiyalariga mos keladigan vazifalarga ega Quyidagilar umumiy olganda tadbirkorlarning asosiy vazifalariga qatoriga kiradi:

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan xarakterlanadi. Kichik tadbirkorlik subyektlariga mustaqillik berish ularda faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini oshiradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi:

- ulgurji va chakana savdo tizimi isloh qilinmoqda;
- kichik tadbirkorlik korxonalariga infratuzilma bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatishning samarali tizimi yaratilmoqda;
- kichik tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish hamda tadbirkorlik erkinligini kafolatlash tizimi shakllanmoqda;
- tadbirkorlarni davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning engillashtirilgan tartibi joriy etildi;
- statistika va soliq hisobotining qisqartirilgan shakli kiritildi;
- kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi;
- ish boshlovchi tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish va boshqa shakllardagi yangi moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etildi va boshqalar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlarning huquqlari va manfaatlarini himoyalash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida iqtisodiyotning bu tarmog'i tobora mustahkamlanib,

uning respublikamiz iqtisodiyotidagi o`rni, ish bilan ta`minlash va mahsulot ishlab chiqarishdagi salmog`i yildan-yilga oshib bormoqda.

Kichik biznesning mahsulot eksport qilish jarayonidagi ishtirokini qoniqarli deb bo`lmaydi. Bularga asosan quyidagi omillar sabab bo`lmoqda:

- respublikada kichik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun mavjud bo`lgan mehnat, xom ashyo, ilmiy-texnik va boshqa salohiyatdan to`liq foydalanilmayotganligi;
- kichik tadbirkorlik sub`ektlarida daslabki sarmoya va ortiqcha mablag`larning etishmasligi;
- bank kreditlari, xalqaro moliya tashkilotlari kredit resurslaridan foydalanish shartlarining murakkabligi;
- kreditni sug`urtalash, kafolat bilan ta`minlash hamda uni qaytarish bilan bog`liq muammolar;
- kichik tadbirkorlik sub`ektlariga xizmat ko`rsatuvchi bank tizimi va boshqa infratuzilmalarning etarli darajada taraqqiy etmaganligi;
- ishlab chiqarish vositalari va iste`mol bozorining yaxshi taraqqiy etmaganligi oqibatida mol yuboruvchilar va xaridorlar o`rtasidagi munosabatlarning chigallashuvi;
- kichik tadbirkorlik mahsulotlarining sifati yuqori emasligi oqibatida talabning pastligi;
- ayrim hollarda mansabdor shaxslar tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlari buzilishi va manfaatlariga putur etkazilishi;
- kichik tadbirkorlik sohasida puxta tayyorlangan, savodli va ishbilarmon menejerlar va mutaxassislar tayyorlash tizimining nomukammalligi, kichik tadbirkorlik xodimlarining iqtisodiy va huquqiy bilim saviyasi pastligi va boshqalar.

Bu kabi muammolarni samarali hal etish uchun respublika hukumatining kichik tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlari amalga oshirilishini davom ettirish zarur. Bunday kontsepsiya asosida nomutanosibliklarni bartaraf etishga, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samaraliroq foydalanishga imkon beruvchi tuzilmaviy o`zgarishlar yotmog`i lozim.

Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kontsepsiyasi quyidagilar asosida shakllantirilmog`i zarur:

- kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqa – tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, barcha tarmoqlarda xususiy korxonalar, jamiyatlar, shirkatlar tuzish bo`yicha shaxsiy tashabbuslarni rag`batlantirish;

- kichik korxonalarning kredit manbalari va sarmoyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat tomonidan kreditni kafolatlash jamg'armalarini yaratish;

- kichik tadbirkorlikka xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarini yanada kengaytirish va rivojlantirish;

- kichik korxonalarning xom ashyo, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, kichik biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotishning samarali tizimini yaratish;

- kichik tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va ular faoliyatining me'yoriy-huquqiy negizini takomillashtirish;

- kichik tadbirkorlik faoliyati ko'rsatkichlarining hisobi va tahlili tizimini soddalashtirish;

- kichik tadbirkorlik uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

Tadbirkorlik xatarlari (risklari)dan himoyalash tizimini ta'minlash uchun sug'urta xizmatining ahamiyatini oshirish.

Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kontseptsiyasida asosiy e'tibor birinchi navbatda iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, tarmoq va hudud uchun zarur, ammo past rentabelli sohalarning rivoji uchun qulay imkoniyatlar yaratish, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati yo'nalishlari va maqsadlariga mos faoliyat yuritayotgan xo'jalik tuzilmalarini rag'batlantirish, hududiy ahamiyatga ega mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarga soliq imtiyozlari belgilash, lizing xizmati va investitsion xatarlarni sug'urtalash tizimini kengaytirish va moliyaviy imkoniyatlari chegaralangan kichik tadbirkorlik korxonalarining bank kreditlaridan foydalanishiga yo'l ochuvchi sharoitlarni ta'minlash vazifalariga qaratilmog'i kerak.

Kichik tadbirkorlik sohasida band firmalar ko'pincha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etishga urinishlari bilan ajralib turadi. Ular faoliyatining strategiyasi asosan quyidagilardan tashkil topadi:

Birinchidan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish asosida rivojlanayotgan firmalar raqobat kurashidan manfaatdor emas. Shu sababli ular bozordagi yuqori foyda keltiradigan bo'shliqni egallashga harakat qilib, tor darajada ixtisoslashgan mahsulot ishlab chiqarishga intiladilar.

Ikkinchidan, bunday firmalar, masalan, elektronika bilan shug'ullanuvchi firmalar, yirik korxonalardan butlovchi qismlarni sotib olish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga harakat qiladilar.

Uchinchidan, ko'pchilik firmalar ishlab chiqarish jarayonini engillashtirish maqsadida yoki bitta turdagi mahsulot ishlab chiqarishga yoki bir turdagi

texnologiyaga ixtisoslashadi. Ular ana shu mahsulot yoki texnologiyani iste'molchilarning talabiga moslashga harakat qilishadi. Yirik korxonalarga esa keng iste'molchilarning talabini qondirishga mos bo'lgan andozali mahsulotlarni ishlab chiqarish xos. Kichik korxonalarning yirik korxonalardan farqi va afzalliklari ham ana shunda.

To'rtinchidan, deyarli barcha kichik korxonalar mustaqillikni saqlab qolishga intilib, tashqaridan mablag' jalb etmaslikka harakat qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, kichik firmalar mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi rivojlanib borishi bilan mustaqillik va o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishga intiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yilda tadbirkorlar bilan uchrashuviga bag'ishlangan majlisida O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishida qilinishi lozim bo'lgan ishlar haqida alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "... mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim"ligi xaqida qator topshiriqlar belgilangan.

Ma'lumki, har qanday tadbirkorlik ma'lum bir hududda: mamlakat, viloyat, shahar yoki qishloq miqyosida olib boriladi. Tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borish uchun ma'lum bir ishchi muhiti bo'lishi kerak.

Bunday muhit ayrim hududlar miqyosida mujassamlanib, o'zida ishbilarmonlik funktsiyalarini amalga oshirishni mujassamlantirgan. Umumiy holda tadbirkorlik muhitasosan quyidagi to'rtta omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro uyg'unligi natijasida amalga oshiriladi). Ular rag'batlantirish ko'rinishida ham shakllanishi mumkin. Ushbu holda mamlakat yoki mintaqadagi mavjud shart-sharoitlar tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun mos bo'ladi.

Chunki, bunday muhit tadbirkorga amalga oshirayotgan ishlarining natijalari qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilishiga keng imkoniyat tug'diradi. Tadbirkorning o'z ishi natijalarini oldindan ko'ra bilishi tavakkallik tushunchasiga teskari holda ifoda etiladi. Agar tadbirkor ma'lum bir muhitda tavakkalchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, u holda u o'zgaruvchanlik, berqarorlik, tavakkalchilik bilan tavsiflanadi. Bunday muhit yuqorida keltirilgan ijobiy muhitga to'g'ri kelmaydi. Amalda ko'p hollarda tadbirkorlik muhitining ma'lum bir omili tadbirkorlar faoliyati samarasiga natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb bo'lmaydi. Chunki, tadbirkorni eng avvalo ko'proq tadbirkorlik muhitini belgilovchi omillarning o'zaro bog'liqligi qiziqtiradi.

Har bir mamlakatda tadbirkorlikning rivojlanishiga undagi siyosiy tizimning barqarorligi katta ta'sir ko'rsatadi. Agar siyosiy tizim barqaror bo'lmasa, tadbirkorlar katta investitsiyalarni jalb qilmasdan yuqori darajadagi foyda olish maqsadida kichik muddatga mo'ljallangan turli xildagi operatsiyalarni amalga oshirishga harakat qilishadi. Siyosiy ahvolning barqarorligi tadbirkorga o'z faoliyatini strategik jihatdan loyihalashtirish, ya'ni uzoq muddatga mo'ljallangan ishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ijtimoiy omil boshqalarga nisbatan o'zining tarkibi jihatidan anchagina murakkab hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tarkibi ko'pgina elementlardan tarkib topadi. Agar tadbirkor ularni e'tiborga olmasa, kelgusida salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Quyidagilar bu omilning asosiy elementlari hisoblanadi:

- jamiyatda mafkuraning holati;
- milliy urf-odatlar;
- millatning madaniy va maishiy odatlari;
- atrofdagi kishilarning tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati;
- davlatning tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati bilan tafsiflanadi.

Iqtisodiy omil bozordagi raqobatni va narx-navo holatini o'zida aks ettiradi. Narx-navo tizimi, o'z navbatida, narxlarning darajasi, ishlab chiqarish jarayoniga tadbirkor tomonidan jalb qilinayotgan ishlab chiqarish omillari, ishchi kuchi, kredit stavkasi miqdori hamda soliq va majburiy to'lovlarni o'z ichiga oladi. Bunda bozordagi raqobat shart-sharoitlari sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilib chiqiladi.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan ma'lum bir shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshirish mumkindir. Uning tarkib topishi avvalambor jamiyatdagi ma'lum bir vaziyatning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lib, undagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat tadbirkorlik faoliyatini tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan kerakli qonunlar, qarorlar, farmonlar va shu kabi huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular hayotga tadbiq kelinmoqda.

Ko'pgina tadbirkorlar kompaniya vakili rolini o'ynaydi. Ular o'z kompaniyasi yoki tashkilotining yuzi bo'lib, bitimlar tuzish uchun boshqa kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashib, biznesni rivojlantirishda asosiy rol o'ynashi

mumkin. Ishbilarmonlar, shuningdek, kompaniyani turli ijtimoiy funktsiyalarda va jamoat biznes tashkilotlarida taqdim etadilar. Tashkilotning yuzi sifatida ular o'zaro

manfaatlar uchun ishlashlari mumkin bo'lgan tovarlar, xizmatlar yoki boshqa kompaniyalar bilan munosabatlarni ta'minlash uchun boshqa biznes mutaxassislari bilan aloqa o'rnatishlari mumkin.

Marketing tadqiqot, strategiya va aloqa sohalarini o'z ichiga olgan keng sohadir. Marketing ko'plab kompaniyalarda muhim rol o'ynaydi va mijozlar uchun qiymat yaratish va mijozlar bilan munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Marketing mutaxassislari ijodiy va qat'iy bo'lishi kerak va ko'pincha reklama va reklama kompaniyalarini yaratish, shuningdek, batafsil bozor tadqiqotlari asosida izlanishlar o'tkazish uchun javobgardir.

Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish maqsadida ikkita fond: tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondlari tashkil etilgan. Tadbirkorlik faoliyatining kelajagi tadbirkorlik muhiti bilan belgilanadi, u esa jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar sinfi, iqtisodiy aloqalarda bozorning ustuvorligi, tadbirkorlik kapitalini mujassamlantirish sharoitining mavjudligi va kerak bo'lgan resurslarni ishlatish kiradi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy mustaqillik darajasi bozorda vujudga kelayotgan mustaqil korxona va tashkilotlar soni bilan tavsiflanadi. Tadbirkorlik muhitini shakllantirish boshqariladigan jarayondir. Lekin boshqarish usullari ma'muriy yoki direktiv ko'rinishida bo'lishi mumkin emas. Ularning asosiy tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga ta'sir qiladigan choralardan emas, balki shunday subyektlarning tarkib topishi yo'lida qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lishi kerak.

Tadbirkorlik muhitini tarkib topishi ko'p jihatli jarayon bo'lib, u o'z ichiga quyidagi tarkiblarni qamrab oladi:

- ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy falsafaning hamda ular bilan bog'liq bo'lgan jamiyat a'zolari psixologiyasining o'zgarishi;
- tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi milliy dastur qabul qilinishi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiy o'sishining qo'shimcha manbai sifatida ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda katta rol o'ynaydi, bandlik muammolarini hal etish, milliy boylikni o'stirish va millatning farovonligi uchun xizmat qiladi.

Hozirgi sharoitlarda tadbirkorlik muhitini tarkib toptirish nafaqat milliy, balki xalqaro muammolardan hisoblanadi. Mavjud bo'lgan mamlakatlararo guruhlarda, masalan, Evropa Ittifoqi miqyosida yagona tadbirkorlik muhiti vujudga kelmoqda.

Bu degani tadbirkorlik faoliyatini yuritish Evropa jamiyatiga kiruvchi barcha mamlakatlarda bir-biriga o'xshab ketmoqda.

Iqtisodiy faollik va mustaqillikning muhim shakli bo'lmish tadbirkorlik respublikamizda bandlikning aniq shaklini va yangi ish joylarini barpo etish

yo`lida eng rivojlangan davlatlar tomonidan qo`llab-quvvatlanib kelinmoqda. Tadbirkorlikning davlat tomonidan qo`llab-quvvatlanishi bir necha yillar mobaynida maslahatlar berish, moliyaviy yordam ko`rsatish yoki soliqlar to`lashda tadbirkorlar uchun ma`lum bir imtiyozlar berilishida aks etmoqda.

Tadbirkorlik muhiti mamlakatning rivojlanishi asosini tashkil qiladi va ishbilarmon kishilarning faoliyat mazmunini belgilab beradi. Turli mamlakatlarda tadbirkorlik muhiti turlichadir. Rivojlangan mamlakatlarda bunday muhit o`zining qulayligi hamda iqtisodiy jarayonlarning yuqori darajada unumli tashkil qilinishi bilan ajralib turadi.

Tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlash mexanizmlarining samaradorligi va unumdorligini oshirish maqsadida bir qancha takomillashtirishlarni amalga oshirish mumkin. Birinchidan, kredit talabgorlari uchun keng qamrovli va shaffof baholash tizimini yaratish haqiqiy ehtiyoj va qobiliyatga ega bo`lgan jismoniy shaxslar va korxonalarga moliyaviy yordam ko`rsatilishini ta`minlaydi. Ikkinchidan, mikrokredit tashkilotlari va biznesni qo`llab-quvvatlovchi tashkilotlar o`rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish arizachilarga nafaqat moliyaviy resurslarni, balki o`z biznes faoliyatini optimallashtirish uchun qimmatli yo`l-yo`riq va maslahat olish imkonini beradi.

Kichik biznesni rivojlantirish va moliyaviy qo`llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo`nalishlaridan biri bo`lgani holda uning taraqqiyotini ta`minlash, milliy iqtisodiyotdagi salmog`ini oshirish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Ularni taraqqiy toptirishda mazkur sub`ektlarning bugungi kun talabi darajasidagi zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish darajasiga tayanilishiga erishish lozim. "Buning uchun ularni rivojlantirishning yangi manbalari, ham chet el investitsiyalarini keng jalb qilish hisobiga, ham ichki manbalar, bank kreditlari hisobiga doimo kashf etib borilishi darkor". Bu siyosatning asosiy maqsadi, nafaqat, kichik biznes sub`ektlarining miqdor jihatdan o`sishini ta`minlash, balki ularning faoliyat samaradorligini oshirishdan iboratdir. Mazkur jarayonlarda ularni imtiyozli asoslarda kreditlash eng asosiy bo`g`in bo`lib maydonga chiqadi. Bunda kichik biznes subyektlarini kreditlash markazida tijorat banklarining ular bilan o`zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlari o`rin egallaydi. Mazkur munosabatlarning uzoq muddatli jarayonlar negiziga asoslanishi kichik biznes investitsiya loyihalarini kreditlash tizimi shakllanishiga imkon beradi. Bugungi kunda davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash tizimi tarkibida kichik biznes vakillari o`z faoliyatlarini tashkil etish, rivojlantirish va kengaytirish uchun imtiyozli kreditlardan foydalanishda quyidagi imkoniyatlarga egalar.

Bundan tashqari, kredit berish va to'lash uchun texnologiyaga asoslangan platformalarni joriy etish jarayonni soddalashtiradi, ma'muriy xarajatlarni minimallashtiradi va o'z vaqtida va qulay moliyaviy operatsiyalarni ta'minlaydi.

Ushbu yaxshilanishlarni birlashtirish orqali mikrocredit tizimi tadbirkorlik subyektlarini samarali qo'llab-quvvatlashi, tadbirkorlikni rag'batlantirishi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi mumkin.

Iqtisodiy jarayonlar qanchalik unumli bo'lsa, jamiyat moddiy va ma'naviy jihatdan shunchalik yuqori darajada bo'ladi. Iqtisodiy jarayonlarning samarasi amalda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarning soni va sifati hamda shu faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan kishilar soni bilan belgilanadi. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlik ishiga yangi tadbirkorlarni jalb qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlik muhiti darajalariga bog'liqdir.

Oxirgisi tadbirkorlik faoliyatiga davlatning aralashishi darajasiga bog'liq. Davlat shunday shart-sharoitlar yaratib berishi kerakki, unda tadbirkorlarning va tadbirkor bo'lmoqchi bo'lganlarning qiziqishi, xohishi va intilishlari maksimal darajada o'z ifodasini topsin. Jahon tajribasi ham iqtisodiy jihatdan rivojlanishga erishgan mamlakatlarda tadbirkorlik uchun barcha qulayliklar yaratib berilganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa.

Tadbirkorlik - bu iqtisodiy faoliyatning eng muhim va harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, jamiyat ehtiyojlarini qondirish, yangi qimmatlik yaratish va iqtisodiy o'sishga erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadbirkorlar o'z g'oyalari, tashabbuslari va riskni o'z zimmalariga olish qobiliyati orqali bozorda raqobatni kuchaytiradi, innovatsiyalarni joriy qiladi va yangi ish o'rinlari yaratadi.

Davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Innovatsion ekotizim, malakali kadrlar va samarali monitoring tizimi orqali qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish mumkin. Tavsiyalar amalga oshirilsa, 2030 yilga qadar startaplar soni ikki baravar ko'payishi va kadrlar salohiyati sezilarli darajada oshishi kutilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlik, aholining daromadini oshirish va mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham katta hissa qo'shadi. Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirish, uning huquqiy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlash har bir mamlakat iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashning keng ko'lamli tizimi shakllangan bo'lib, tadbirkorlik subyektlariga sezilarli imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilmoqda. Shu bilan birga, tizim yanada takomillashtirilishi lozim.

2. Tadbirkorlik subyektlari moliyaviy resurslar va yuqori malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni hal etish tadbirkorlikning yanada jadal rivojlanishiga zamin yaratadi.

3. Tadbirkorlik faoliyatini yanada samarali qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish kabi yo'nalishlarda tizimli ishlar olib borish maqsadga muvofiq.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash davlat dasturlari (2019–2024).

2. Abdurahmonov, A. "Tadbirkorlik va davlat siyosati." Toshkent, 2020.

3. Karimov, D. "Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyalari." Toshkent, 2021.

4. O'lmasov A., Vaxobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2014.

5. Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'RQ-358-son, 01.01.2017.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish to'g'risida"gi PF-5511-son Farmoni. 27.06.2018.

7. Abdullayev, A. (2018). O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (5), 24-32.

8. Yoqubov, N. (2017). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish. Biznes-ekspert, (7), 34-38.

9. Smallbone, D. (2016). Entrepreneurship policy: issues and challenges. Small Enterprise Research, 23(3), 201-218.

10. Lundström, A., & Stevenson, L. A. (2006). Entrepreneurship policy: Theory and practice (Vol. 9). Springer Science & Business Media.

11. World Bank. (2020). Doing Business 2020. Comparing Business Regulation in 190 Economies.